



BUXORO VILOYATI BUXORO TUMANI HOKIMINING QARORI

200400, Gala-osiyo shahri, Buyuk ipak yo'li shoh ko'chasi, 54-uy, tel: (365) 54-25-762, 54-23-215, e-mail:buxoro.t@exat.uz

2022 - yil 31 - oktabr

475-2-32-Q/22

Buxoro tuman hokimligi

Buxoro tumanida umumiy ovqatlanish mahsulotlarining ayrim turlarini maxsus ajratilgan joylarda sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 75-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash yuzasidan tuman hududida umumiy ovqatlanish taomlarining ayrim turlarini maxsus ajratilgan joylarda sotish tartibini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining [6-moddasiga](#) asosan

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13 fevraldagi 75-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ning ayrim turlarini maxsus ajratilgan joylarda sotish tartibi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i (L.Shodiev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Axmedov), tuman Sanitariya epidemiologiya va jamoat salomatligi xizmati markazi (D.Sherova), tuman Qurilish bo'limi (M.Ayosov) ushbu tartibga rioya etilishini ta'minlasinlar.

4. Mazkur qaror Galaosiyo ovozi gazetasida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijro nazorati tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Rajabov hamda tuman hokimining o'rinbosari S.Hamroyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



X.Q.JURAYEV

Buxoro tuman hokimining
2022 yil 31 oktabrdagi
475-2-32-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Umumiy ovqatlanish mahsulotlarining ayrim turlarini maxsus ajratilgan joylarda sotish

TARTIBI

Umumiy qoidalar

Ushbu tartib tuman hududida majburiy tartibda dehqon (oziq-ovqat) bozorlari va savdo komplekslari (keyingi o'rinlarda – tashkilotlar deb yuritiladi) hududida umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini maxsus ajratilgan joylarda sotish tartib-qoidalarini belgilaydi.

2 Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini uy sharoitlarida tayyorlab kelingan yoki joylardagi vakolatli organ qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda ovqatlanish o'rinlari tashkil etmasdan donali tayyorlash va sotish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi — yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini, donalitayyorlash, pishirish va sotish uchun maxsus ajratilgan joylar yengil konstruktiv qurilgan va tumansozlik, sanitariya va yong'in xavfsizligi normalari va talablariga javob beradigan, oziq-ovqat mahsulotlarini vaqtincha saqlash, masalliq tayyorlash, pishirish va personal shaxsiy gigiyenasiga rioya etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Ushbu tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlari — masallig'i uy sharoitida yoki vakolatli organ tomonidan maxsus ajratilgan joylarda tayyorlanib, ovqat pishirish vositalarida pishiriladigan va sotiladigan donali taomlar (somsa, blinchik, cheburek, manti, xonim, sosiskali kulcha, fast-fud va boshqa donali taomlar);

maxsus ajratilgan joy - belgilangan tartibda faoliyat yuritish uchun ajratilgan, umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlari tayyorlanadigan va sotiladigan joy;

talabgor -uy sharoitida yoki maxsus ajratilgan joylarda ovqatlanish joylarini tashkil etmasdan umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tayyorlash va sotish istagini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkor;

vakolatli davlat organlari -tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi, tuman Davlat soliq inspeksiyasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tuman bo'limi, tuman Qurilish bo'limi;

joylashish sxemasi - vakolatli organ tomonidan maxsus ajratilgan joylarning oldindan tasdiqlangan joylashuvi.

Tegishli hududlarda maxsus joylarni ajratish va joylashish sxemasini tuzish

5. Tuman hokimligi tomonidan tashkilotlar ma'muriyati taklifiga binoan umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tayyorlash va sotish uchun maxsus ajratilgan joy tanlangan kundan keyin 1 (bir) ish kuni davomida vakolatli davlat organlari tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganiladi.

Vakolatli davlat organlari mazkur o'rganish yakuni bo'yicha 3 (uch) ish kunida ijobiy yoki salbiy xulosalarini talabgorga taqdim etilishi lozim.

Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tayyorlash va sotish uchun maxsus ajratilayotgan joyda savdo qilishishni rad etilgan taqdirda, vakolatli organlar tomonidan salbiy xulosa berish uchun asoslarni keltirib o'tishi lozim.

Talabgor tomonidan vakolatli organning xulosasidagi rad etuvchi sabablarni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lsa, 5 (besh) ish kuni ichida qayta xulosa olish uchun yuboriladi.

Vakolatli organlar tomonidan o'rganish natijalari bo'yicha berilgan xulosalari uchun to'lov undirilmaydi.

Vakolatli davlat organlari bilan kelishish uchun maxsus ajratilayotgan joy alohida ko'rsatilgan holda tashkilot hududining umumiy joylashish sxemasi taqdim etilishi lozim.

Tashkilot hududidagi maxsus ajratilayotgan joylar sanitariya qoidalariga gigiyena normalari, yong'indan saqlanish va tumansozlik normalariga javob bergan taqdirda kelishiladi.

Maxsus ajratilgan joylarning soni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, savdo aylanmasining yuqori va pastligi, aholining kunlik iste'mol talabidan kelib chiqib vakolatli organlar tomonidan belgilanadi.

Donabay umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarimasalliqdarini uy sharoitida tayyorlab kelib pishirib sotish yoki maxsus ajratilgan joyda tayyorlab, pishirib sotish joylarining joylashish sxemasi tashkilot ma'muriyati taklifiga binoan vakolatli organlari tomonidan tuziladi hamda joylashuv sxemasi xaritasi tashkilotga kirish joyi qismida ko'rinarli tarzda joylashtirilishi shart.

Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini sotish uchun maxsus joylarni ajratish har ikki yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

Umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (taomlarini) maxsus ajratilgan joylarda sotish talab va shartlar

10. Talabgor tashkilot ma'muriyati bilan tuzilgan ijara shartnomasi asosida uy sharoitida yoki vakolatli organ qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

Ushbu xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma talab etilmaydi.

Xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish davomida nazorat-kassa texnikasi qo'llanilmaydi.

Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tayyorlash va sotishni amalga oshirishning majburiy talablari va shartlari quyidagilardan iborat:

sanitariya qoidalariga va gigiyena normalari; yong'indan saqlanish normalari; texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi lozim.

Talabgorlar va ular tomonidan yollangan xodimlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart.

Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlari uy sharoitida tayyorlansa, ovqat masalliqdarini vaqtincha saqlanishi, taom tayyorlanishi, pishirilishi jarayoni va foydalaniladigan xonalar hamda jihozlar sanitariya qoidalariga va gigiyena normalariga muvofiqligi yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklanadi.

Maxsus ajratilgan joylarda maishiy chiqindilarni yig'ish uchun qopqoqli chiqindi qutilari bo'lishi lozim.

11. Umumiy ovqatlanish mahsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tashkilotlarning kirish yo'laklari, avtomobil to'xtash joylarida, bozor va savdo kompleksi hududida joylashgan savdo magazinlariga kirish yo'llariga tutash joylar, hojatxona, chiqindixonaga 25 metr va undan kam masofada joylashgan hududlarda tayyorlash va sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu Tartibga rioya etilishini nazorat qilish

12. Ushbu tartibga rioya etilishini nazorat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yakunlovchi qoidalar

Ushbu tartib asosida faoliyat olib boruvchi talabgorlarning soni cheklanmaydi. Maxsus ajratilgan joylarda umumiy ovqatlanish maxsulotlari (taomlari) ayrim turlarini tayyorlash va sotish davomida muhandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish talabgorlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu tartib talablarini buzgan aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.